

IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIKNI O'RNINI

Yuldashev Shamsiddin Qiyamiddinovich¹, Bozorov Azizbek Alisher o'g'li²

¹ Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida dotsenti, i. f. n.

² Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti, 1-bosqich talabasi

² E-mail: bazarovaziz0905@gmail.com

DOI: 10.61587/mmit.tiue.uz.v1i1.265

Annotatsiya. Ushbu maqolada "yashil" texnologiyalar rivojlanishi sharoitida iqtisodiyot sohalarining transformatsiyalashuvi hamda ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik integratsiyasi tadqiq etilgan. Biznesni ekologiyalashtirish, "yashil" moliya, logistika va marketing tizimlaridagi yangi tendensiyalar tizimli tahlil qilinib, "yashil" texnologiyalarni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: "yashil" iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, investitsiyaviy jozibadorlik, "yashil" moliya, "yashil" logistika, resurs tejash.

THE ROLE OF ENVIRONMENTAL SUSTAINABILITY AND ECONOMIC EFFICIENCY IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY

Shamsiddin Qiyamiddinovich Yuldashev¹, Azizbek Alisher ugli Bozorov²

¹ Associate Professor, Department of Sectoral Economics, Sharof Rashidov Samarkand State University, Candidate of Economic Sciences

² First-year student, Institute of Human Resources and Mahalla Development Management

² E-mail: bazarovaziz0905@gmail.com

Abstract. This article examines the transformation of economic sectors and the integration of environmental sustainability and economic efficiency in the context of the development of green technologies. New trends in business greening, green finance, logistics and marketing systems are systematically analyzed, and practical proposals and recommendations are put forward to develop green technologies and increase economic efficiency.

Keywords: green economy, environmental sustainability, investment attractiveness, green finance, green logistics, resource saving.

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi, sayyoramizda tabiiy resurslarning keskin kamayib borishi, yerlarning tanazzulga uchrashi, suv taqchilligi va ekologik tizimlarga tushayotgan antropogen bosimning misli ko'rilmagan darajada ortishi an'anaviy iqtisodiy o'sish modellarini tubdan va qayta ko'rib chiqishni ob'ektiv ravishda taqozo etmoqda. Uzoq yillar davomida dunyo miqyosida amal qilib kelgan chiziqli va ekstensiv iqtisodiy modellar tabiat salohiyatini cheksiz deb hisoblash hamda faqatgina yalpi mahsulot hajmini oshirishga qaratilganligi sababli hozirgi vaqtda global ekologik inqirozlarni, issiqxona effektini va biologik xilma-xillikning yo'qolishini keltirib chiqardi.

Resurslarning cheklanganligi sharoitida jamiyatning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish hamda kelajak avlodlar uchun xavfsiz atrof-muhitni meros qilib qoldirish muammosi markaziy masalasiga aylandi. Mazkur keng ko'lamli iqtisodiy transformatsiya jarayoni zamonaviy biznesning barta zanjirlarini, ya'ni strategik yashil marketing falsafasi va innovatsion korporativ menejment tizimidan tortib, institutsional moliya mexanizmlari, ishlab chiqarish texnologiyalari hamda global logistika yetkazib berish tarmoqlarigacha to'liq qamrab olmoqda. Shu nuqtai nazardan, ekologik va iqlimiy xavfsizlik maqsadlari bilan mikroidrok va

makrosamaradorlik darajasidagi rentabellik ko'rsatkichlarini o'zaro tizimli uyg'unlashtirish mexanizmlarini chuqur amaliy, uslubiy va funksional jihatdan tadqiq etish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, xorijiy kapitalni faol jalb qilish, og'ir va yengil sanoat korxonalarini innovatsion modernizatsiya qilish hamda demografik o'sish sharoitida aholi turmush farovonligini muttasil oshirish borasidagi strategik maqsadlar endilikda bevosita qat'iy ekologik barqarorlik mezonlari bilan uzviy bog'liq holda, xalqaro andozalarga mos ravishda amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlari bilan tasdiqlangan "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" hamda mamlakat taraqqiyotining drayveri bo'lgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida yalpi ichki mahsulot tarkibida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini keskin va bir necha barobarga oshirish, yirik sanoat korxonalarida energiya sarfi samaradorligini sezilarli darajada yaxshilash, yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari emissiyasini bosqichma-bosqich kamaytirish hamda qishloq xo'jaligida ekin maydonlarini suv tejovchi texnologiyalarga o'tkazish kabi tizimli vazifalar tegishli vazirlik va idoralar oldiga qat'iy qilib belgilab berilgan

Suv resurslarining global miqyosda kamayib borayotgani qishloq xo'jaligini intensiv asosda rivojlantirishni talab etmoqda. Bu borada qishloq xo'jaligi sohasida, ayniqsa respublika bo'ylab tashkil etilgan va iqtisodiyot drayveri hisoblangan zamonaviy agroklastarlarda hamda fermer xo'jaliklarida tomchilatib sug'orish, yomg'ir latib sug'orish va diskretli avtomatlashtirilgan sug'orish kabi innovatsion resurs tejovchi agrotexnologiyalar joriy etilgan ekin maydonlari hajmi jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

Davlat tomonidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga ushbu texnologiyalarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun to'g'ridan-to'g'ri byudjet subsidiyalarining berilishi, soliq va bojxona imtiyozlarining joriy etilishi mazkur jarayonni yanada tezlashtirdi. Mahalliy yetakchi tijorat banklari tomonidan xalqaro moliya korporatsiyalari liniyalari va o'z mablag'lari hisobidan kichik va o'rta biznes subyektlariga, xususi korxonalarga ishlab chiqarish jarayonlari uchun energiya va resurs tejovchi zamonaviy texnologik uskunalarini chet eldan sotib olish, muqobil energiya qurilmalarini o'rnatish hamda energiya tejamkor qurilish materiallarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun maxsus imtiyozli "Eko-kreditlar" (Green Loans) va yashil lizing xizmatlari ajratildi.

Xulosa o'rinda, tizimli tahlillar va yakuniy iqtisodiy-ekologik baholashlar asosida ta'kidlash mumkinki, yashil texnologiyalarga, ekologik innovatsiyalarga, muqobil energetika ob'ektlariga va resurs tejovchi uskunalar transferiga kiritilgan yirik investitsiyalar dastlabki investitsion va kapital bosqichda ma'lum darajada yuqori xarajatlarni talab qilsa-da, o'rta va uzoq muddatli strategik istiqbolda ishlab chiqarishda cheklangan xomashyo va tabiiy resurslarni keskin tejash, energiya va an'anaviy uglevodород yoqilg'isi sarfini sezilarli darajada kamaytirish, chiqindisiz ekologik toza ishlab chiqarish va logistika zanjirlarini yaratish hamda global va mintaqaviy bozorlarda milliy mahsulotlarimizning tannarxini arzonlashtirish va uning ekologik tozalik (ESG) darajasini oshirish hisobiga o'ziga sarflangan barcha barcha xarajatlarni iqtisodiy jihatdan to'liq va ortig'i bilan oqlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-387-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "«O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'rifida"gi PF-158-sonli Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2025). O'zbekiston Respublikasining ekologik barqarorligi va yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlari to'g'risidagi statistik to'plami. – Toshkent.
4. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2025). Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va yirik quyosh/shamol elektr stansiyalari loyihalari natijalari to'g'risidagi yillik tahliliy hisoboti. – Toshkent.
5. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi va Suv xo'jaligi vazirligi. (2025). Suv tejovchi texnologiyalarni (tomchilatib sug'orish) joriy etish samaradorligi to'g'risidagi statistik va iqtisodiy tahlillar to'plami. – Toshkent.
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2026). Yashil obligatsiyalar (Green Bonds) emissiyasi va jalb qilingan mablag'larning maqsadli yo'naltirilishi yakunlari bo'yicha hisobot. – Toshkent.
7. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA). (2025). Markaziy Osiyoda yashil transformatsiya va qayta tiklanuvchi energiya tendensiyalari: O'zbekiston sharhi. – Parij.